



**KICHIK BIZNESNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING XORIJ  
TAJRIBASINI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI**

**Abdulxakimov Sirojiddin Nurboy o'g'li**

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**Kirish.** Innovatsion faoliyatni rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sish va milliy raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Ko'pgina mamlakatlar hukumatlari innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazish tadbirkorlik faoliyatining yangi shakl va turlarini (xususan, innovatsion) rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Innovatsion biznes ish jarayonlari sifati va samaradorligini oshirishning eng muhim omiliga aylanmoqda. Innovatsiyalarni joriy etish hisobiga ishlab chiqarish tannarxining pasayishi, yangi iqtisodiy sohalarning rivojlanishi, korxonalar va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining oshishi kuzatilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, ilm-fan innovatsiyalarni yaratish yo'lidagi eng muhim elementdir. Biroq innovatsiyalarni tijoratlashtirish (innovatsiyalarni innovatsiyalar toifasiga o'tkazish) asosan biznes ishtirokida sodir bo'ladi. Shunday qilib, ilm-fan va biznesning o'zaro ta'siri innovatsion jarayonni amalga oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining zamonaviy rivojlanish xususiyati sifatida hozirda innovatsion kichik biznesni rivojlantirish borasida taraqqiy etgan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan maqsadli dasturlar va ularning natijalari to'g'risida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Avvalo, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda innovatsion tadbirkorlik rivojlanishining miqdoriy ko'rsatkichlari tahliliga e'tiborni qaratish zarur.

## **Tahlil va natijalar muhokamasi**

Ayrim bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan va shakllanayotgan mamlakatlar guruhiga kiruvchi, tez sur'atlarda jadal rivojlanayotgan Xitoy va Hindiston kabi mamlakatlarda kichik innovatsion tadbirkorlikning yalpi sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 2000-yillarning boshlarida 60 foizdan yuqori ko'rsatkichga ega edi<sup>1</sup>. Kichik innovatsion biznes rivojlanishining jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalar jarayonida ushbu turdagi iqtisodiy subyektlarning ishtiroki yuqori darajada bo'lib, innovatsiyalarning aksariyat qismi ushbu soha hissasiga to'g'ri keladi. Masalan, AQSh iqtisodiyotida kichik biznes vakillari tomonidan yirik korporatsiyalarga nisbatan 13 marta ko'p bo'lgan hajmdagi patentlar va innovatsion ishlanmalar ishlab chiqiladi<sup>2</sup>.

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatining innovatsion yo'naltirilganligi mamlakatda amal qilayotgan innovatsion rivojlanish modeli bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Hozirgi kunga qadar jahon xo'jaligida innovatsion rivojlanishning uch xil modeli shakllangan. Birinchi model fan va innovatsiyalar bo'yicha dunyoda yetakchilik mamlakatlar uchun xos bo'lgan model hisoblanib, fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishga asoslanadi. Bu tarzdagi innovatsion rivojlanish modeli AQSh, Angliya va Fransiya mamlakatlari uchun xos hisoblanadi. Ushbu mamlakatlar guruhi fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni rag'batlantirish orqali innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga


<sup>1</sup> Грибовский А.В. Механизмы государственной поддержки малого инновационного бизнеса – <https://www.riep.ru>.

<sup>2</sup>Основные направления политики администрации США в сфере малого и среднего бизнеса – <https://rustradeusa.org/Attach-ment.aspx?id=319>.

Грибовский А.В. Механизмы государственной поддержки малого инновационного бизнеса – <https://www.riep.ru>.



erishadilar. Ikkinchi model uchun innovatsiyalar rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish orqali innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish xos bo'lib, Germaniya, Shvetsiya va Shvetsariya kabi mamlakatlar uchun xos hisoblanadi<sup>3</sup>. Uchinchi model jahon xo'jaligining ilmiy-texnikaviy rivojlanishiga ixtisoslashgan innovatsion iqtisodiyot modeli hisoblanib, Yaponiya va Janubiy Koreya mamlakatlari uchun xos model hisoblanadi. Mamlakatlarda amal qilayotgan innovatsion rivojlanish modellari kichik innovatsion biznes sohasida faoliyat va ixtisoslashuv yo'nalishlarini belgilab beradi.



**1-rasm. Kichik innovatsion biznes subyektlarining innovatsion salohiyatining rivojlanganlik darajasi bo'yicha guruhlanishi<sup>4</sup>**

<sup>3</sup> Арутюнов Ю.А. , Гончаренко Л.П. Инновационная политика. // <https://www.litres.ru>.

<sup>4</sup> Muallif ishlanmasi.

Jahon xo'jaligida innovatsion faoliyatni amalga oshirishning o'zaro bog'langan mikro va makro darajadagi mexanizmi amal qiladi. Innovatsion jarayonlarni amalga oshirishning mikromexanizmi kichik tadbirkorlik subyektlari amaliyotida innovatsiyalarni o'zlashtirish dastaklari orqali namoyon bo'ladi. Innovatsiyalarni o'z amaliyotiga tatbiq etish ko'lami kichik biznes vakillarining innovatsion salohiyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda ularning innovatsiyalarni ishlab chiqish hajmi, yangiliklarni o'zlashtirishga bo'lgan intilishi inobatga olinadi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, kichik innovatsion biznes subyektlarining innovatsion salohiyati 1-rasmda keltirilgan darajalarga ajratiladi.

Quyi darajadagi innovatsion salohiyat, ya'ni innovatsiyalarni o'zlashtirishga yoki ishlab chiqishga moslashmagan kichik biznes vakillari hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotda ularni innovatsion salohiyati rivojlanmagan kichik biznes subyektlari deb ham ataladi.

O'rta darajadagi innovatsion salohiyat – bu innovatsiyalarni o'z amaliyotiga tatbiq etib yoki ularni ishlab chiqib, bozordagi o'z o'rnini yo'qotmaslik uchun harakat qilayotgan kichik biznes subyektlarini anglatadi. Bu turdagi kichik innovatsion biznes vakillarining moslashuvchanlik tezligi va muddati biroz sust bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Yuqori darajadagi innovatsion salohiyat – bu bozorda o'z innovatsion pozitsiyasiga ega bo'lgan, innovatsion ishlanmalarni zudlik bilan o'z amaliyotiga

tatbiq eta oladigan, doimiy innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqishda ilg'orlik qilib kelayotgan kichik innovatsion biznes vakillari hisoblanadi<sup>5</sup>.

### **Xulosa va takliflar**

Yuqorida qayd etilgan jahon tajribasidan kelib chiqib, kichik innovatsion biznesni maqsadli, manzilli qo'llab-quvvatlashning xorij tajribasi tahlili ushbu ilg'or tajribaning quyidagi jihatlarini mamlakatimiz amaliyotida qo'llash maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda:

- ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishni moliyalashtirish va aylanma mablag'lar uchun zarur mablag'larni kredit shaklida jalb etishda subsidiyalashgan foiz stavkasi shaklida ajratish (Germaniya tajribasi);
- innovatsiyalarni rivojlantirish uchun imtiyozli shartlar asosida maqsadli kreditlar ajratish (Finlyandiya tajribasi);
- ishlab chiqilgan innovatsion texnologiyani ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlarida qo'llash uchun ishlab chiqarilganligi yoki ularga sotilganligi holatlarida foyda solig'iga nisbatan imtiyoz berish;
- innovatsion maqsadlarda sarflanayotgan mablag'larni to'liq soliqdan ozod etish;
- ilmiy tadqiqot tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini yakka tartibda yoki hamkorlikda amalga oshirish maqsadida sarflanayotgan mablag'larga nisbatan soliq imtiyozi joriy etish;

---

<sup>5</sup> Васюхин О.В., Павлова Е.А. Развитие инновационного потенциала промышленного предприятия // <https://www.mongraphies.ru>.



– ichki va tashqi innovatsiyalarni jalb etishda innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ustuvorlik berish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. [https://www.clustercollaboration.eu/achievements/spain-learning-and-opportunities-covid 19-crisis](https://www.clustercollaboration.eu/achievements/spain-learning-and-opportunities-covid-19-crisis).
2. <http://www.oecd.org/coronavirus/policy-responses/coronavirus-covid-19-sme-policy-esponses04440101/#section-d1e167> Грибовский А.В. Механизмы государственной поддержки малого инновационного бизнеса – <https://www.riep.ru>.
3. Смит А. Исследование о природе и причинах богатство народов (Книга1-III). - М.:”Наука”,192. -С. 174, 176.
4. Сэй Ж.Б. Трактат и политической экономии. – М.: Экономика. 1980. –С. 17.
5. Шумпетер Й. Теория экономического развития. - М.: Прогресс.1985. – С.178-180.
6. Шпалтаков В.П. Шумпетер о проблемах инновационного развития // Инновационная экономика и общество. 2017. № 2. С. 25–34.
7. Хизрич Р. Питерс М. Предпринимательство//Вып.1. – М.: 1991  
Друкер П. Рынок: как выйти в диллеры. Практика и принципы. - М.: 199.
8. Друкер П. Рынок: как выйти в диллеры. Практика и принципы. - М.: 1992.

